

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
**BOLALARDA SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT C KASALLIGINI
DAVOLASH XUSUSIYATLARI**

Xo'jaqulov Davron Abdixakimovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. *Jahon Sog'lijni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hepatitning C turi bilan yer yuzining 70 milliondan ortiq kishisi aziyat chekadi. Ushbu infeksiya va u bilan bog'liq asoratlar natijasida yiliga 400 mingga yaqin inson vafot etadi. Hozirgi vaqtgacha surunkali virusli hepatit C (SVGC) bolalar orasida uchrashi dolzarb bo'lib qolmoqda. Turli mualliflarning fikriga ko'ra, bolalarda ushbu infeksiyaning tarqalishi 0,1% dan 5% gacha. Hepatit C virusi bilan kasallanish har yili ortib bormoqda.*

Virus yuqtirgan odamlarning taxminan 70% da kasallik surunkali shaklga o'tadi. Bolalarda virusli hepatit C asosan perinatal yo'l bilan yuqadi, ya'ni onadan bolaga infeksiya yuqish chastotasi 2-5% ni tashkil qiladi. Shuningdek, bolalarda virusli hepatit C qon quyish yo'li orqali yuqishi ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ma'nbalarda keltirilishicha, bolalarda SVGC kechishi minimal klinik belgilar bilan tavsiflanadi va ko'pincha me'yoriy ko'rsatgichda yoki zardob transaminazalarining biroz oshishi bilan tavsiflanadi. Ko'p holatlarda SVGC bilan og'rigan bolalar uchun Pegintron va ribavirin bilan kombinatsiyalangan terapiya tavsija etiladi.

Kalit so'zlar. surunkali virusli hepatit C (SVGC), Pegintron, ribavirin, genotip, bolalar, biokimyoviy qon tahlili.

Tadqiqotning maqsadi: Virusning genotipiga qarab bolalarda SVGC terapiyasining xususiyatlarini o'rganish va virusga qarshi terapiyani kasallik qo'zg'atuvchisiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish.

Materiallar va usullar: Biz SVGC bilan kasallangan 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan 10 ta bola kuzatildi, (6 o'g'il va 4 qiz). Genotipga tekshiruv

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o'tkazilganda 7 bolada (5 o'g'il va 2 qizda) 3 a genotipi aniqlandi, 1 o'g'il va 2 qizda 1-b genotip aniqlandi. Bolalar orasida asosiy shikoyatlar bosh og'rig'i (88,5%), ko'ngil aynishi (43%), mushak va bo'g'implarda og'riq (49%) maktabda va uy vazifasini tayyorlashda charchoq (90,5%), qorin og'rig'i (52%), ayrim vaqtarda axlatning suyuq kelishi (28 %).

Barcha bolalarda kasallikning davomiyligi 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan. Biokimoviy qon tahlili o'tkazilganda davolanish boshlanishidan oldin transaminazalar ko'rsatgichi me'yoriy ko'rasatgichdan 20-30% ga ya'ni 2 baravar oshganligi aniqlandi.

Natijalar. Barcha bolalarda trombotsitlar darajasi, gamma-glutamiltransferaza, ishqoriy fosfataza, bilirubin, triglitseridlar, protrombin indeksi, qalqonsimon bez gormonlari, temir zardobi va ferritinni o'rganish natijalari me'yoriy ko'rsatgichlarda ekanligi aniqlandi. Faqat 3 (33 %) bolalarda jigar ultratovush tekshiruvi jigarning biroz kattalashganligini va mezenximal o'zgarishlar borligini ko'rsatdi va bu bolalarda fibrotest 0,23 (F0-F1), aktitest – 0,29 (A0-A1) natijani ko'rsatdi. PZR tekshiruv usuli yordamida SVGC barcha bolalarda sifat jihatidan aniqlandi, davolash boshlanishidan oldin $2,2-2,9 \times 10^6$ TB/ml nusxalari miqdoriy jihatdan aniqlandi.

Davolash rejimida pegintron alfa-2b kombinatsiyasini haftasiga 60 mkg / kg teri ostiga 1 marta va ribavirinni 15 mg / kg / kun davomida og'iz orqali 2 dozada qabul qilgan. Ushbu preparatlar kombinatsiyasi 48 hafta davomida SVGS genotipi 1-b bo'lgan bolalarga va 24 hafta davomida surunkali virusli gepatit C ning genotipi 3-a bo'lgan bolalarga buyurilgan. Davolashning asoratlari va nojo'ya ta'sirlari sifatida bir bolada (10 %) leykotsitlar darajasi $2,9 \times 10^9$ gacha pasaygan va klinik qon tahlilida ECHT soatiga 18 mm/soatgacha ko'tarilgan, boshqa bolalarda (20 %) yomon kayfiyat, ishtaxasizlik, bosh aylanishi, ko'ngil aynishiga shikoyat qilgan.

Xulosa: Davolash muolajasidan so'ng 3-a genotipli SVGC bo'lgan bolalar orasida bitta holatda kasallikning qaytalanishi qayd etildi. SVGC genotipi 3-a bo'lgan qolgan 6 bola va 1-b genotipli uchta bolada pegintron va ribavirin kombinatsiyasi bilan o'tkazilgan virusga qarshi terapiya tez va erta virusologik ta'sir

ko'rsatdi.

Adabiyotlar.

1. Abdikhakimovich, Khuzhakulov Davron. "LABORATORY DIAGNOSTICS OF HEPATITIS C VIRUS." *TADQIQOTLAR* 31.2 (2024): 53-56.
2. Xujakulov, Davron Abdixakimovich, et al. "Sostoyaniye vneshnego dixaniya u bolnix detey so srednetyajelim techeniem pishevogo botulizma." *Voprosiy nauki i obrazovaniya* 28 (77) (2019): 79-86.
3. Fazliddinovna, Boboqandova Mexriniso, Oripova Pokiza Olimovna, and Xudjaqulov Davron Abduhakimovich. "Innovative technologies in the training of future doctors." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 594-597.
4. Abdikhakimovich, Khujakulov Davron. "ASSESSMENT OF THE QUALITY OF LIFE OF PATIENTS IN MODERN MEDICINE." *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali* 1.17 (2023): 220-224.
5. Abdikhakimovich K. D. PERFORMANCE OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE DEPARTMENT OF MICROBIOLOGY, VIROLOGY AND IMMUNOLOGY //TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 31. – №. 2. – S. 57-61.
6. Abdikhakimovich, X. D., & Husan, R. (2023). STUDYING ANXIETY IN YOUNGER SCHOOL CHILDREN. *TADQIQOTLAR*, 25(1), 134-137.
7. Yusupov, M. I., G. M. Odilova, and X. SH. Shaykulov. "Ob izmenenii svoystv kishechnykh palochek pri ponosakh u detey." *Ekonomika i sotsium* 3-2 (82) (2021): 611-616.
8. Yusupov, M., Shaykulov, X., Odilova, G., & Mamarasulova, N. (2023). Rannee viyavlenie rotavirusnoy infeksii u detey. *Katalog monografiy*, 1(1), 1-68.
9. Boltayev, K. S., & Xo'jaqulov, D. A. (2021). PIYOZ–ALLIUM CEPA NEMATODALAR FAUNASI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1213-1218.
10. Abdikhakimovich, K. D. (2023). ANTIMICROBIAL SUBSTANCES OF LACTIC BACTERIA AND PRACTICAL ASPECTS OF THEIR USE. *OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNIE IDEI V MIRE*, 33(1), 32-37.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

11. Sultonovich, B. K., Isrofilovna, M. N., Abdusalomovna, J. F., & Olimovna, O. P. (2022). A comparative study of nematoda facilities of shortage plants and trees in zaratshan forest biotopes. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(5), 1-5.
- 12 Boltaev, K., Mamedov, A., Xojakulov, D., & Mamarasulova, N. (2024). Samarqand viloyati to ‘qay sharoitida o ‘suvchi yovvoyi o ‘simliklar nematodalari kompleksining ekologiyasi. *Katalog monografiy*, 1(1).
13. Mamarasulova, N. I., & Odilova, G. M. (2023). BERBERIS INTEGERRIMA BUNGENING IKKILAMCHI METABOLITLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA BIOTEXNOLOGIK AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 33-43.